



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 42 (1641), 2026-yil 3-mart, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI – TA’LIM ISLOHOTLARI SAMARADORLIGIDA MUHIM BO’G’IN



O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnomasida iste’dodli o‘g‘il-qizlarimiz ta’lim, ilm-fan, madaniyat, san’at, sport va boshqa sohalarda erishayotgan katta yutuqlari bilan yangi O‘zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shayotgani alohida ta’kidlangani ta’lim sohasiga ishonch va mas’uliyatni belgilab berdi.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari ijro intizomi masalasiga alohida to‘xtalib, ta’lim, sport va kasb-hunar sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilayotgani, bunday sharoitda davlat boshqaruvida natijadorlik va mas’uliyatni kuchaytirish ustuvor vazifa ekanini ta’kidladi.

► Davomi 3-betda

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va bu orqali yoshlarimizni bilimli, ertangi kunga mas’ul va daxldor insonlar qilib kamolga yetkazish eng ustuvor vazifalardan. Shu ma’noda, sohaga doir qonunchilik hujjatlarida belgilangan muhim vazifalarni amalga oshirishda barcha bo‘g‘indagi rahbarlardan katta mas’uliyat va javobgarlik talab etiladi.



TADBIRKOR AMUDARYO TUMANIDA TIBBIYOT MUASSASASI QURIB BERDI



Salomatlik – el boyligi

Avvallari Amudaryo tumanidagi Uyshin mahallasi aholi tibbiy yordam olish uchun Qipchoq shaharchasidagi 1-oilaviy poliklinikaga borishga majbur edi. Ammo ushbu poliklinika mahalladan 8-9 kilometr uzoqda joylashgani sababli keksalar, nogironligi bo‘lgan fuqarolar va yosh bolali ayollar uchun noqulaylik tug‘dirardi. Ya’ni bu holat qishning sovuq, izg‘irinli kunlari yoki yozning jazirama issig‘ida transport topish, poliklinikaga tezroq yetib borish kabi muammolarni keltirib chiqarardi.

Bugun yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlash, tibbiy xizmat sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan. Bu borada davlat bilan bir qatorda saxovatpesha tadbirkorlarning



ijtimoiy mas’uliyatni his etib, xalq manfaati yo‘lida qilayotgan ezgu ishlari e’tirofga loyiq. Shunday qo‘li ochiq ishbiarmonlardan biri Amudaryo tumani Uyshin mahallasida zamonaviy oilaviy shifokorlik punktini tashkil etish tashabbusini bildirdi.

Aholining tibbiy xizmatdan imkon qadar tez va sifatli foydalana olish borasidagi

ehtiyojlari inobatga olinib, bu tashabbus qo‘llab-quvvatlandi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan mazkur mahallada yangi tibbiyot punkti qurish loyihasi tasdiqlandi. Natija uzoq kuttirmadi. Qisqa muddatda barcha zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan tibbiyot muassasasi barpo etildi.

Mazkur tibbiyot maskani bugun mahalla ahli salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va birlamchi tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Asosiysi, bu inshoot to‘liq saxovatpesha tadbirkor homiyligida qurilib, xususiy sektorning ijtimoiy sohadagi faol ishtirokini yaqqol namoyon etdi.

Hozir oilaviy shifokorlik punkti ultratovushli tekshiruv (UZI), elektrokardiografiya (EKG) apparatlari, stomatologiya xizmatlari uchun zarur uskunalar, zamonaviy kompyuter texnikalari va boshqa ilg‘or tibbiy jihozlar bilan to‘liq ta’minlangan. Bu esa mahalla aholisiga turli tekshiruv va muolajalarni o‘z yashash hududida olish imkonini bermog‘da.

Oilaviy shifokorlik punktida tajribali shifokorlar hamda mutaxassislar faoliyat yuritayotir. Xususan, umumiy amaliyot shifokori, pediatr, akusher-ginekolog, stomatolog hamda boshqa mutaxassislar aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatmoqda. Hamshiralar va o‘rta tibbiyot xodimlari emlash, profilaktik ko‘rik, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirmog‘da.

Bunday tibbiyot maskanlari tashkil etilayotgani tibbiy infratuzilmani kengaytirish barobarida aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarni erta aniqlashga xizmat qilaypti. Eng asosiysi, bu ezgu ish xalq bilan tadbirkor, davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligining yorqin ifodasi sifatida bo‘y ko‘rsatmoqda.

► Davomi 5-betda



YANGI O‘ZBEKISTONNING JANUBIY TAYANCHI

Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga bu galgi tashrifi strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishini ko‘zdan kechirish barobarida viloyatning kelgusi o‘n yillikdagi qiyofasini belgilab beruvchi yangi taraqqiyot paradigmasini e’lon qildi.

Surxon vohasi bugun O‘zbekistonning shunchaki janubiy viloyati emas, balki Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi geoiqtisodiy ko‘prigi, mamlakat industrial quvvatining yangi drayveri va ijtimoiy islohotlarning laboratoriyasi maqomiga ko‘tarilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, Surxon vohasini rivojlantirish bu — yangi O‘zbekistonning janubiy tayanch ustunini mustahkamlash demakdir. Mazkur ibora davlatning milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va mintaqaviy hamkorlik sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarini ifoda etuvchi jihat hisoblanadi.

So‘nggi yillarda viloyatning rivojlanish dinamikasi iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan sifat o‘zgarishiga yuz tutayotganini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, hududning sanoatlashish darajasi bo‘yicha ham salmoqli o‘sinh kuzatilmoqda. Ayniqsa, sanoatning viloyat iqtisodiyotidagi ulushi so‘nggi to‘qqiz yilda besh baravar oshib, 10 foizga yetgani vohaning agrar o‘lkadan industrial hududga aylanayotganidan dalolat beradi.

► Davomi 2-betda



Inson qadri uchun

REIMBURSATSIYA DASTURI

yoxud bepul dorilar kimlarga ajratiladi?

Har bir fuqaroning asosiy huquqlaridan biri sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishdir. Oilaviy byudjet uchun og‘irlik qilmaydigan, sifatli va tekin tibbiy xizmatlarni ta’minlash maqsadida yurtimizda davlat tibbiy sug‘urtasi bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Aholini kasallik va yuqori tibbiy xarajatlardan moliyaviy jihatdan himoya qiladigan va kafolatlangan tibbiy xizmatni ko‘zda tutuvchi bu tizim dastavval 2021-yilda Sirdaryo viloyatida yo‘lga qo‘yilgan edi. Prezidentimizning 2024-yil 5-sentabrda “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur tizimni yanada keng yoyishda muhim huquqiy asos bo‘ldi. Qaror bilan

aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish hamda davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini boshqa hududlarda ham joriy qilish vazifalari belgilandi. Shu yil oxirigacha yurtimizning barcha hududida bu tizim yo‘lga qo‘yiladi. Natijada aholining barcha qatlami kafolatlangan tibbiy yordam hajmi bilan to‘liq qamrab olinadi.

► Davomi 5-betda



Fan va amaliyot

QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION MAKTAB ISH BOSHLAGI

O‘tgan yili 10-dekabr kuni davlatimiz rahbari agrar tarmoq vakillari bilan muloqot o‘tkazgan hamda soha xodimlari kuni munosabati bilan tashkil etilgan, paxtachilik va g‘allachilikda samaradorlikni oshirishga bag‘ishlangan yig‘ilishda Mirzacho‘l hududidagi ilg‘or tajriba e’tirof etilgan edi. Zotan, 2025-yili mirzacho‘lliklar cho‘l sharoitida ham paxtadan yuqori hosil olish mumkinligini amalda isbotlab, gektaridan o‘rtacha 50-55 sentnerdan xirmon ko‘targandi.

► Davomi 4-betda

Ramazon — mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi

XAYR-SAXOVAT VA EZGULIK AYYOMI

Yurtimizdagi islohotlar, inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan dasturlar va ijtimoiy himoya mexanizmlari Ramazon oyining ma’naviy ruhi bilan uyg‘unlashib, uni xalqimiz qalbiga yanada yaqin va mo‘tabar ayyomga aylantirmog‘da. Bu oyda ehtiyojmandlarga ko‘mak berish, keksalar holidan xabar olish, bemorlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash kabi xayrli ishlar keng quloch yoymog‘da.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 17-fevraldagi “Muborak Ramazon oyida ehtiyojmand aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi qarorida shu oyni milliy an’ana va qadriyatlarimizga mos, yuksak ma’naviy ruhda o‘tkazish, aholining

ehtiyojmand qatlamlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, saxovat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan ahiq chora-tadbirlar belgilab berilgan.

► Davomi 2-betda

2026-yil 3-mart, 42-son

YANGI O'ZBEKISTONNING JANUBIY TAYANCHI

Firdavs SHARIPOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Bu yo'nalishda Janubiy Afrikaning "Sosol" kompaniyasi bilan ko'mirdan polipropilen, polietilen va kauchuk ishlab chiqarish bo'yicha erishilgan kelishuvlar viloyat uchun texnologik "sakrash" bo'lishi kutilmoqda. Ushbu kelishuv Surxondaryo endi faqat ko'mir yetkazib beruvchi emas, balki murakkab kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yuqori texnologik markazga aylanishini anglatadi. Xitoylik investorlarning Sariosiyo'dagi konlarga 1 milliard dollar sarmoya kiritishga tayyorligi esa hududning xalqaro kapital uchun naqadar jozibador ekanini ko'rsatadi.

Qulay iqlim sharoiti Surxondaryoni qishloq xo'jaligida mintaqaviy yetakchiga aylantirish imkonini beradi. Prezidentimiz tashrifi doirasida Termiz tumanidagi "Tomorqa maktabi" faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Bu yerda bir yilda 3-4 marta hosil olish, ilmiy asoslangan dehqonchilik va yangi ekzotik ekinlar (papayya, banan, rozmarin)ni mahalliyalashtirish bo'yicha tizimli ishlar boshlangan. Xuddi Termiz tumanidagi kabi Angor, Uzun, Denov tumanlarida "Tomorqa maktablari"ni tashkil qilish, ularda yiliga 10 ming kishini o'qitish topshirig'i berildi. Umuman,



Termiz tumani tajribasi asosida har bir viloyatda 2 tadan "Innovatsion tomorqa maktabi" ishga tushiriladi. Bu tizimdan asosiy maqsad — aholining tomorqadan oladigan daromadini 10-15 million so'mgacha yetkazish va shu orqali qishloq joylarda kambag'allikni minimal darajaga tushirish.

Surxondaryoda ichimlik suv muammosi yaqin-yaqin-gacha eng og'riqli masala bo'lib kelgan. Prezidentimizning "To'palang" suv omboridan foydalanish hisobiga ichimlik suv ta'minotini yaxshilash loyihasi natijalari bilan tanishuvi yuzidan muammoga yechim topilganini ko'rsatdi. Qiymati 287 million dollar bo'lgan ushbu loyiha ishga tushirilishi natijasida 563 ming kishi toza ichimlik suv bilan ta'minlandi. Texnik jihatdan ushbu loyiha-ning noyobl-gi shundaki, suv 246 kilometri magistral tarmoq orqali hech qanday nasos-siz, faqat gidravlik bosim asosida hududlarga yetkazib berilmoqda. Bu esa yiliga 18,4 million kilovatt-soat elektr energiyasini tejash va tannarxni keskin pasaytirish imkonini beradi. Mazkur loyiha nafaqat iqtisodiy, balki ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, aholining hayoti sifatini oshirishda keskin buri-lish yasa-di.

Jarqo'rg'on tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivi Prezidentimizning hududlarni kompleks rivojlantirishga doir konsepsiyasining amaliy namunasi bo'ldi. Bunday massivlarning barpo etilishi viloyatda urbanizatsiya darajasini 36,2 foiz oshirdi. Bu aholining turmush tarzi o'zgarayotgani, zamonaviy xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlanayotgani va qishloq joylarda shaharcha tipidagi infratuzilma shakllanayotganining belgisidir.

Yana bir muhim masala transport infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq. Yurtimizni Afg'oniston va Tojikiston bilan bog'laydigan 178 kilometri magistral yo'l 30 yildan buyon kapital ta'mirlanmagan. Prezidentimiz topshirig'iga binoan bu yo'l-ni ta'mirlash ishlari uch oy ichida boshlanadi.

Temir yo'l sohasidagi yangilanishlar ham e'tiborga molik. Xususan, "Toshguzar — Boysun — Qumqo'rg'on" yo'nalishini tezyurar poyezdlarga moslash, "Qumqo'rg'on — Quduql" temir yo'lini elektrlashtirish, Janubiy Koreyadan yangi zamonaviy tezyurar poyezdlarning olib kelinishi aholining og'irini yangillatish bilan birga vohaning turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.



Munosabat

TASHRIF ILM VA IMKONIYATGA
YANADA KENG YO'L OCHDI

Prezidentimiz doimo Surxondaryo viloyatiga tashrifni ko'hna Jayxun yoqasidagi qadim va navqiron Hakim Termiziy majmuasi ziyoratidan boshladi.

Nargiza RAHMATULLAYEVA,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi
Surxondaryo viloyati bo'limi
rahbari

Bu manzil eski Termiz arxeologik yodgorliklar hududida bo'lib, ming yillar avval aholi maskani sifatida paydo bo'lgan. Milodning 1219-1220-yillaridagi Chingizxon bosqiniga qadar gullab-yashnagan shahar bo'lgan. Shahardan juda ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Xususan, o'nlab termiziy-lar ham shu joyda tug'ilib, kamolga yetgan va jahon ilmu faniga hissa qo'shgan.

Davlatimiz rahbari "Surxondaryo nafaqat tabiati go'zal zamin, balki ruhi baquvvat, g'ayrati baland, oriyati mustahkam insonlar yurtidir. Surxonni rivojlantirish yangi O'zbekistonning janubiy tayanch ustunini mustahkamlash demakdir", dedi. Bunda ham bir olam ma'no mujassam. Aytish kerakki, ayniqsa, so'nggi yillarda hududda olib borilayotgan izchil binyodkorlik hamda obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar, xalq farovonligini oshirishga yo'naltirilgan dasturlar har bir surxondaryolik uchun yuksak faxr va ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. O'tgan yillarda viloyatda izchil islohotlar samarasi natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari qamrovi, yangidan qurib foydalanishga topshirilgan maktablar, yangi turar joylar, ichimlik suv ta'minoti, hududlar infratuzilmasi yanada yaxshilanishiga erishildi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

ANGORDAN
LYUKSEMBURGGASherzod ALIMOV,
Surxondaryo viloyati
Angor tumanidagi
"Zamin Angor Cluster"
MCHJ ta'sis-chisi

Bizning "Zamin Angor Cluster" MCHJ Surxondaryo viloyatining Angor tumanida joylashgan bo'lib, hududdagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan yetakchi klasterlardan biri sanaladi. Kompaniyamiz, asosan, paxta va g'alla yetishtirish, intensiv bog'dorchilik, mahsulotlarni qayta ishlash va logistika, issiqxonachilik bilan shug'ullanadi. Hozir 9 ming gektardan ortiq maydonda mahsulot yetishtiramiz. Qishloq xo'jaligida bugungi kun uchun dolzarb sanalgan tomchilatib sug'orish texnologiyalarini qo'llab kelimiz.

Faoliyatimiz 2017-yildan so'ng boshlangan. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joylarda ekin ekishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha jarayonni qamrab oladigan klaster tizimi yaratildi.

Shundan so'ng biz ham imkoniyatlardan ruhlanib, Angor tumanida klaster tashkil etdik. Klasterimiz paxtadan tortib, meva va sabzavotlarga-gacha bo'lgan hamma narsani yetishtiradi, mahsulotlarni saralaydi va qayta ishlaydi, ayni paytda zamonaviy logistika bilan ham shug'ullanadi. Shuningdek, turkiyalik hamkorlar bilan intensiv bog' yaratganimiz.

2025-yilning sentabr oyida korxonamizning uch yillik faoliyatini xalqaro auditdan o'tkazish jarayonida tajriba va sinov hamda yangi koridor sifatida Yevropada, Lyuksemburg qimmatli qog'ozlar birjasida yevrobond, ya'ni qimmatli qog'ozlarni savdoga chiqardik. Dastlab 1 millionlik yevrobond sotildi. Buning ortidan korxonamiz yangi moliyaviy manbaga ega bo'ldi.

Endi 40 million yevrolik yevrobond savdoga chiqarishni rejalashtiryapmiz. Bu qimmatli qog'ozlarni Moskva shahridagi qimmatli qog'ozlar birjasida savdoga chiqaramiz.

Prezidentimiz joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 26-27-fevral kunlari Surxondaryo viloyatida bo'ldi.

Termiz tumanidagi tomorqa maktabida qishloq xo'jaligi fidoyilari, tadbirkorlar va soha mas'ullari ishtirokida bo'lib o'tgan taqdimotlar davomida davlatimiz rahbari ish jarayoni, faoliyatimiz bilan qiziqdi. Men qimmatli qog'ozlar savdosining moliyaviy barqarorligimizni ta'minlashdagi o'rni haqida gapirib berdim. Prezidentimiz har bir tadbirkorni, jumladan, bizni ham astoydil tinglab, korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishdagi o'rni yuqori ekani sababli ushbu tajribani yanada ommalashtirish kerakligini ta'kidladi.

Shuningdek, mutasaddilarga bu borada zarur ko'rsatmalar ham berdi. Avvallari faoliyatimizni moliyalashtirish uchun tijorat banklariga murojaat qilib, kreditdan foydalanardik. Dunyo tajribasini o'rganish jarayonida qimmatli qog'ozlar bilan ishlash yanada maqbul va ishonchli ekanini angladik. Bu esa bizga kredit yuklarini yengillashtirish bilan birga faoliyatimiz kengayishiga va xalqaro darajaga chiqishimizga muhim omil bo'lyapti.

Davlatimiz rahbari viloyatimizga tashrifi davomida tomorqadan uch marta hosil olish amaliyoti, sanoatlashgan bog'lar va suv tejovchi texnologiyalar, meva-sabzavotlarni qayta ishlash va eksport qilish, qo'shilgan qiymat yaratish, hudud uchun yangi bo'lgan sitrus va tropik mevalar yetishtirishni o'zlashtirish muhimligini alohida qayd etdi. Mazkur yo'nalishlarga yanada ko'proq e'tibor qaratish barobarida ilmiy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ham bildirdi. Bu vazifalar ham biz kabi endigina jahongacha chiqib borayotgan tadbirkorlik korxonalari faoliyatida amaliy dastur bo'lib xizmat qiladi, albatta.

Ramazon — mehr-muruvvat,
ahillik va shukronalik oyi

XAYR-SAXOVAT VA EZGULIK AYYOMI

Boshlanishi 1-betda

Qaror ijrosi doirasida joylarda tizimli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, Jizzax viloyatida Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish, ehtiyojmand oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Ijtimoiy reyestring "davlat ta'minotidagi oila" toifasiga kiritilgan xonadonlar, o'zgarlar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek, yetim bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga 1 million so'mdan mablag' berilmoqda. Bu muhtojlarning ehtiyojini ta'minlash, dasturxonlari to'kinligi va qalbidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, "kambag'al oila" toifasiga kiritilgan hamda "mahalla yetitilgi" ro'yxatida

turgan ehtiyojmand oilalarga 500 ming so'mdan bir martalik yordam puli ajratilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, mahallalarda o'zaro hamjihatlik va mehr-olibat muhitini yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

Ijtimoiy reyestring "davlat ta'minotidagi oila" toifasiga kiritilgan xonadon vakili sifatida davlatimizning e'tibori va g'amxo'r-ligidan juda mamnunman, — deydi Do'stlik tumani Mevzor mahallasida yashovchi Anorboy Qo'chqorov. — Qaror ijrosi doirasida oilamizga 1 million so'm yordam puli ajratildi. Bu nafaqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki bizga e'tibor va mehr-olibat ifodasi sifatida qalbimizda chuqur minnatdorlik uyg'otdi.

Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarning bemor a'zolari uchun davalanish va zarur hollarda



jarrohlik amaliyotini bepul tashkil etish ishlari ham tizimli yo'lga qo'yilgan. Bu ham aholining sog'lig'ini saqlash va hayot sifatini yaxshilash borasidagi amaliy g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

Mamlakatimizda aholi hayotini yaxshilash va salomatligini asrash davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan, — deydi Jizzax viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Mahmarasul Umarov. — Ramazon oyi munosabati bilan "Vaqt" xayriya jamoat fondi mablag'lari hisobidan ijtimoiy reyestrdagi oilalarning bemor a'zolari uchun davalanish va murakkab jarrohlik amaliyotini bepul tashkil etish imkoniyati yaratildi. Ushbu aksiya doirasida Jizzax viloyatida dastlabki bosqichda 100 dan ziyod bemor ro'yxatga olindi. Ularga tegishli vaucherlar topshirildi.

Kam ta'minlangan, hozir ishsiz oila boshlig'i sifatida davlatimiz ko'rsatayotgan g'amxo'rlikni chuqur his etyapman, — deydi Sharof Rashidov tumani Olmachi mahallasida yashovchi Jahongir Norboyev. — Ayniqsa, qizimning ko'zida jarrohlik amaliyoti o'tkazish uchun berilgan imkoniyatdan juda ham mamnunman. Ochig'i, farzandimning sog'lig'i bizni ancha vaqtdan beri tashvishga solib kelar edi. Moddiy imkoniyatimiz cheklangani uchun yuqori malakali shifokorlarga murojaat qilolmadik. Bugun tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan qizimga Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazida jarrohlik amaliyotini o'tkazishi uchun vaucher topshirilgani biz uchun kutilmagan va ayni paytda quvonchli voqea bo'ldi. Bu e'tibor va g'amxo'rlik farzandimning sog'lig'ini

tiklash bilan birga ertangi kunga ishonchimizni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ramazon o'zaro birdamlik, insonlar bir-biri haqida qayg'urib, xato-kamchiliklarini kechiradigan, xayrli ishlarda hamkorlik qiladigan, o'zaro qo'llab-quvvatlaydigan oydir, — deydi O'zbekiston musulmonlari idorasi Jizzax viloyati vakili o'rinbosari Botixon Ro'ziyev. — Bu oyda qariyalar ziyorat qilnadi, bemorlar holidan xabar olinadi, muhtojlarga yordam beriladi, ko'ngil so'raladi. Ayniqsa, yetim-yesirlarning ko'nglini ko'tarish cheksiz savobli ish. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Vaqt" xayriya jamoat fondiga ajratilayotgan mablag'lar hisobidan ijtimoiy reyestrlarda ro'yxatda turgan aholiga moddiy yordam berilmoqda. Shuningdek, bemorlarni davalash va murakkab jarrohlik amaliyotini o'tkazish uchun mablag' ajratilishi, kam ta'minlangan oilalarga zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilishi, ular uchun iftorlik dasturxonlari yozilishi Ramazon oyining mazmun-mohiyatiga to'la mos keladi. An'anaga muvofiq, joriy yilda ham viloyatimizdagi 170 ta masjidida tarovih namozi ado etilmoqda. Shundan 124 tasida Qur'oni karim xatm qilinmoqda.

Muborak oy munosabati bilan aholiga qulaylik yaratish maqsadida Jizzax viloyatidagi dehqon bozorlari va yirik savdo majmualarida arzonlashtirilgan savdo yarmakalari tashkil etilgan. Ularda kundalik ehtiyoj uchun zarur turli oziq-ovqat mahsulotlari hamyonbop narxlarda sotuvga chiqarilgan.

Odatda har yakshanba kuni oilam ehtiyoji uchun bir haftaga yetadigan bozorlik qilib qo'yaman, — deydi Jizzax shahrida yashovchi Abdulkarim Sharipov. — O'tgan hafta Ramazon oyi yaqinlashib kelayotgani uchun narx-navo oshishi mumkin degan o'yda odatdagidan ko'proq mahsulot

xarid qilgandim. Chunki avvalgi yillarda aynan Ramazon arafasida ayrim oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashib ketgan holatlarni kuzatganimiz. Bugun bozorga tushsam, narxlar o'tgan haftadagiga nisbatan arzon ekanini ko'rdim. Masalan, o'tgan hafta tuxumning har donasini 1300 so'mdan sotib olgan bo'lsam, bugun 1200 so'mdan xarid qildim. Yoki 120 ming so'mlik go'shtni bugun 110 ming so'mdan sotib oldim. Ochig'i, avvaliga "Balki sifati pastroqdir" degan gumon bilan mahsulotlarni sinchiklab tekshirdim. Biroq go'sht ham, tuxum ham sifati va yangi ekan.

Shunda bir sotuvchidan "Nega bu yil Ramazonda narxlar oshmay, aksincha arzonlagan yoki sifatida farq bormi?" deb so'radim. Sotuvchi "Biz narxni o'zboshimchalik bilan oshirmaymiz. Ilgari mahsulot ulgurji sotiladigan joylarda narx ko'tarilgani uchun biz ham oshirishga majbur bo'ladik. Bu safar davlatimiz rahbari mutasaddilarga Ramazon oyida narx-navo barqarorligini ta'minlash har qachongidan ham muhim ekanini qat'iy ta'kidlagani bois, mahsulotlarimiz narxi oshgani yo'q, ayrimlari esa hatto arzonladi", dedi.

Ha, mamlakatimizda Ramazon oyi jamiyatda o'zaro mehr-oqibatni mustahkamlovchi, hamjihatlikni kuchaytiruvchi, inson qadrini ulug'lovchi umumxalq ayyomi sifatida yuksak qadr topmoqda. Shuningdek, yurtimizdagi islohotlarning mazmun-mohiyati, ya'ni "inson — jamiyat — davlat" tamoyilining hayotdagi amaliy ifodasidir.

Bundan tashqari, viloyatdagi mahallalarda xayriya tadbirlari, saxovat aksiyalari, "Ramazon dasturxon" loyihalari doirasida kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olish, nuroniy-larni ziyorat qilish, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga amaliy yordam ko'rsatish ishlari keng tus olgan. Korxona va tashkilotlar, tadbirkorlar, saxovatpesha fuqarolar ham bu xayrli ishlarga faol qo'shilib, ijtimoiy hamkorlikning samarali namunasini ko'rsatmoqda.

Muborak Ramazon oyida ehtiyojmand aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida"gi qaror ijrosi doirasida Jizzax viloyatida qilinayotgan ishlar ezgulik va saxovat tamoyillarining amaliy ifodasi bo'lib, har bir fuqaroning davlat va jamiyat e'tiborida ekanini yaqqol namoyon etmoqda.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

4

JARAYON

2026-yil 3-mart, 42-son

Dolzarb mavzu

TOSHKENTNING ATMOSFERANI IFLOSLANTIRISHDAGI ULUSHI 70 FOIZGA TUSHIRILADI

Hozirgi davrda ilm-fan va texnologiyalar sohasida yuksak marralar zabt etilishi barobarida yuzaga kelgan ekologik tanglik kelajakka jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Mamlakat tanlamas, chegara bilmas ekologik ofatlar kirib bormagan hudud qolmadi. Iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan toshqin, to'fon, chang-to'zon inson hayoti va tabiiy muvozanatga og'ir zarar yetkazmoqda.

Ushbu global ekologik muammolarning hayot davomiyligiga salbiy ta'sirini kamaytirish insoniyatdan katta mas'uliyat va oqilona harakatlarni talab etmoqda va dunyo hamjamiyati oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ayni paytda dunyo miqyosida bu yo'nalishdagi ishlarni tashkil etishda o'zaro hamkorlik va hamjihatlikni ta'minlash, tabiat boyliklarini tejash va barqaror rivojlanishga erishish ustuvor maqsad etib belgilangan.

Ekologik muammolar mintaqamiz, shu jumladan, mamlakatimizni chetlab o'tmayapti. Orol dengizining qurishi, tuproq va havo ifloslanishi, suv tanqisligi, so'nggi paytlarda tez-tez kuzatilayotgan chang-to'zon hodisalari yurtimizda ham ekologiya bilan bog'liq chora-tadbirlarni tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. So'nggi yillarda bu masalalarga ustuvor e'tibor qaratilib, sohadagi ishlarining huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi va amaliy ishlar kengaydi.

Jumladan, o'tgan yili ayni yo'nalishdagi keng ko'lamli chora-tadbirlar ekologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi.

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasidan ma'lum qilishlaricha, bu borada o'tgan yili davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilishi natijasida o'mon



maydonlari kengaymoqda, Orolbo'yida yangi o'rmonzorlar yaratildi. "Yashil makon" loyihasi doirasida barcha hududlarda ko'kalamzorlashtirish ishlari davom etdi. Yirik sanoat korxonalarida "yashil belbog'"lar tashkil qilindi. "Mening bog'im" loyihasi doirasida hududlarda yashil bog' va yashil jamoat parklari barpo etilyapti. Bu loyihalar cho'llashish jarayonini sekinlashtirib, iqlim o'zgarishining oldini olish va bioxilma-xillikni saqlashga xizmat qilmoqda. Bu ishlar nafaqat tabiatni tiklash, balki xalqimiz uchun qulay ekologik muhit yaratishda muhim samara bermoqda.

Atmosfera, yer va suv resurslari hamda atrof-muhitni monitoring qilish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, 73 ta sanoat korxonasida mavjud chang-gaz tozalash uskunalarini modernizatsiya qilindi va yangidan tashkil etilayotgan 2 ta sanoat korxonasida chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatilishi natijasida



atmosfera 1,5 ming tonnadan ortiq ifloslantiruvchi modda tashlanishining oldi olindi. "Toza havo" oyligi doirasida avtotransport vositalari ekologik nazoratdan o'tkazildi. Aniqlangan nosozliklar bartaraf etilishi natijasi 200 tonnadan ortiq ifloslantiruvchi modda atmosfera havosiga chiqarilishining oldi olingan.

Chiqindilarning tabiatga zararini kamaytirish ham global miqyosdagi muammodir. Bunday masalalarga yechim sifatida dunyo miqyosida o'ziga xos yangicha tajribalar shakllanyapti. Xususan, chiqindini qayta ishlash uni zararli vositadan foydali manbaga aylantirmoqda. Ushbu ilg'or tajribalar yurtimizda ham keng joriy etilmogda. Xususan, chiqindilarni boshqarish tizimi raqamlashtirilishi, "Toza makon" billing tizimi va mobil ilovasi joriy etilishi, xususiy sektor investitsiyasi, yangi texnika va poligonlarning modernizatsiya qilinishi orqali chiqindilarni qayta ishlash va ulatitsiya darajasi sezilarli oshdi. Atmosferaga zararli moddalar chiqarilishi 1,5 ming tonnaga kamayishi, oqova suvning 60 foizini tozalashga erishilishi havo va suv sifati yaxshilanishiga, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga zamin yaratdi. Bu choralar mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot"ni joriy etishda mustahkam poydevor bo'lmoqda.

Obod mahalla

IQTISODIY-IJTIMOIIY MASALALARNING ILMIY YECHIMI

Toshloq tumanidagi Obisiyo mahallasida 3000 dan ziyod kishi yashaydi. Tuman markazidan olidsagi ushbu qishloqda bir qancha muammolar to'planib qolgan edi. Xususan, toza ichimlik suv, yo'l, elektr ta'minoti, ish o'rinlari yetishmaydi. Shu sabab mahalla "og'ir" toifaga kiritilgan. "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslar keng quloch yo'zdi.

Joriy yil 23-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 2026-yildagi asosiy vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda respublika bo'yicha aniqlangan 37 tumandagi 903 "og'ir" mahallaning har biri uchun aniq, ilmiy asoslangan va amaliy natijaga yo'naltirilgan master-rejalar ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan edi. Bu topshiriq oddiy rejalashtirishdan iborat emas, balki mahallani "og'ir" toifadan chiqarishga qaratilgan kompleks yechimlar tizimini yaratishni nazarda tutadi.

Farg'ona davlat texnika universitetining professor-o'qituvchilari, magistrant va tayyor-tadqiqotchilardan iborat ishchi guruh Toshloq tumanidagi "og'ir" toifadagi Obisiyo, Varzak mahallalarining iqtisodiy-ijtimoiy holatini tahlil qilish, hududning iqtisodiy salohiyati va zaxiralarni aniqlash, investitsiya, infratuzilma

loyihalari ro'yxatini shakllantirish, tomorqadan samarali foydalanishga qaratilgan master-reja ishlab chiqish jarayonida faol ishtirok etmoqda.

— Yig'ilishda Prezidentimiz belgilab bergan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona viloyatidagi 125 ta "og'ir" mahallaning ijtimoiiy-iqtisodiy va infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha master-rejalar ishlab chiqish belgilab olindi, — deydi Farg'ona davlat texnika universitetining o'quv ishlari bo'yicha prorektori Ilimdorjon Jahongirov. — Jarayonda dastlab belgilangan hudud aholisining demografik holati, ijtimoiiy qatlamlari tahlil qilinadi. Shu orqali ijtimoiiy-iqtisodiy holat o'rganiladi. Infratuzilma holati aniqlanadi. Shuningdek, hududning salohiyati baholalanib, o'sish nuqtalari, rivojlanish drayverlari bo'yicha alohida takliflar ishlab chiqiladi. Muhimi, yangi ish o'rinlari ochish bo'yicha aniq takliflar beriladi. Master-rejalar



natijasiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari uchun yangi iqtisodiy tashabbuslar alohida lotlar ko'rinishida shakllantirilib, mahalliy hokimiyat organlariga taqdim etiladi. Jarayonga universitet professor-o'qituvchilari bilan birga bitiruvchi kurs hamda magistratura bosqichi talabalari ham jalb etilgan. Ularning bitiruv-malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalari mavzusi ushbu master-rejalariga muvofiqqlashtirilgan.

Ishchi guruh Obisiyo mahallasida geodeziya o'lchov va topografik loyiha ishlari yakunladi. Hozir hududning arxitektura viy va muhandislik tizimlari bo'yicha bosh rejas i ishlab chiqilyapti.

— Mahallamizdagi muammolar yuzasidan juda ko'p joylarga murojaat qilganmiz. Ammo amaliy yechim bo'lmagan, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Rasuljon Xudoyberdiyev. — Ayniqsa, ichki yo'llar holati yomonligi, ichimlik suv tanqisligi va ihsizlik dolzarb masala. Yig'ilishda Prezidentimizning kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash, "og'ir" toifadagi mahallalarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berish yuzasidan bergan aniq ko'rsatmalari mahallamiz hayotida tub burilish yasadi. Mas'llar mahallamizga kelib, ko'chama-ko'cha yurib, aholi bilan muloqot qilib, vaziyatni o'rgandi. Har bir muammo joyida tahlil qilinib, ularni hal etish bo'yicha aniq va asosli takliflar ilgari surilmoqda. Muhimi, mahallamiz uchun bosh reja va loyihalar bepul ishlab chiqildi. Agar bu kabi ishlar pulli asosda qilinganida edi, mahalla byudjetidan katta mablag' sarflash va ortiqcha yugur-yurga sabab bo'lardi. Yosh arxitektorlar mahalla iqtisodiyatini zamonaviy andozalar asosida ta'mirlash, obodonlashtirish borasida taqdim etayotgan loyihalar bizga juda ma'qul keldi. Ular muammolarni hal etish bilan birga biz e'tibor bermagan imkoniyatlarni ilmiy asoslab, iqtisodiy takliflar bermoqda. Bu juda katta ko'mak, imkoniyat.

So'nggi paytlarda Toshkent shahri dunyoning havosi ifloslangan hududlari reytingida tez-tez qayd etilyapti. Bunday noxush holatlarning oldini olish va poytaxtimizda ekologik musaffollikni ta'minlash maqsadida qator loyihalar amalga oshirilyapti.

www.yuz.uz yuz.uznews

Prezidentimizning shu yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlar rivojida muhim dasturulamal bo'ldi. Ushbu farmon asosida tasdiqlangan dasturlardan birida aynan ekologik muvozanatni ta'minlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq maqsad va rejalar o'z aksini topdi.

Mazkur yo'nalishdagi islohotlar dasturida, jumladan, atmosfera havosini zararlantirmaydigan va ekologik toza avtomobillarni sotib olish uchun aholiga qulay sharoitlarni yaratish bilan bog'liq chora-tadbirlar ham belgilangan. Ushbu masala kun tartibiga ko'tarilishi bejiz emas. Zero, bugungi kunda havo ifloslanishida avtotransport vositalarining sezilarli ulushi bor.

Shuningdek, ekspluatatsiya muddati o'tgan avtomashinalarning utilitatsiyasini tashkil etish va uning komponentlarini qayta ishlash amaliyotini yo'lga qo'yish ham bugungi kunning muhim talabi. Bu boradagi chora-tadbirlar natijasida ekspluatatsiya muddati o'tgan va atmosferaga zararli tashlanmalar chiqaruvchi avtomashinalar aholidan qabul qilib olib, ularning komponentlarini qayta ishlash amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Atmosfera zararli tashlanmalarni chiqarayotgan korxonalarning ekologik toza uskunalaridan foydalanishini rag'batlantirish tizimini isloh qilish ham dolzarb masala. Shu maqsadda yirik korxonalariga filtr, tozalash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyasini o'rnatish uchun 100 million dollarlik, 7 yilga mo'ljallangan kredit liniyalarini ochish ko'zda tutilgan.

So'nggi paytlarda Toshkent shahri dunyoning havosi ifloslangan hududlari reytingida tez-tez qayd etilyapti. Bunday noxush holatlarning oldini olish va poytaxtimizda ekologik musaffollikni ta'minlash maqsadida qator loyihalar amalga oshirilyapti. Xususan, shahar atrofidagi issiqxonalar filtrlar bilan jihozlanyapti. Endilikda bu jabhadagi ishlar davom ettirilib, Toshkent shahri atrofidagi issiqxonalarni Surxondaryo viloyatiga ko'chirish uchun agroklaster tashkil etish va kamida 200 gektar yer ajratilishini ta'minlash rejalashtirilgan. Agroklasterlar tarkibiga o'tgan issiqxonalar uchun bir sotixiga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida subsidiyalr taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Natijada Toshkent viloyati va poytaxtimizning atmosfera havosini ifloslantirishdagi ulushi 70 foizga tushiriladi.

Bu ishlarning muhimligi shundaki, ular nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham yashashga yaroqli muhitni saqlab qoladi. Ekologik toza texnologiyalar joriy etilishi, kambag'al oilalarning bandligini ta'minlash, xalqaro hamkorlik orqali yangi tajribalarni o'zlashtirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiiy rivojlanishini barqaror qiladi.

Bahor XIDIROVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Ishlab chiqilayotgan master-rejalar shaharsozlik normalari va qoidalariga to'liq mos keladi. Muhimi, unda hudud rivoji uchun aniq strategiya belgilab beriladi. Bu esa "og'ir" mahallalarni faqat ijtimoiiy yordam hisobiga emas, balki o'z iqtisodiy salohiyatini ishga solish orqali rivojlantirishga xizmat qiladi.

— O'rganish jarayonida muhandislik kommunikatsiyalari, yo'l-transport tizimi, ijtimoiiy infratuzilma, yashil hududlar hamda turar joy fondi holati atroflicha tahlil etilmogda, — deydi Farg'ona davlat texnika universiteti arxitektura va qurilish fakulteti dekani Shodiljon Umarov. — Ishchi guruh hududning asosiy iqtisodiy drayverlari yo'nalishini aniqlash, mahallaning iqtisodiy tahlilini o'tkazish hamda aholi o'rtasida so'rovnomalar tashkil etish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Aniqlangan muammo va kamchiliklardan kelib chiqib, mahallaning bosh rejas i ishlab chiqildi. Bino va inshootlarni loyihalash" markazida talaba hamda professor-o'qituvchilar rahbarligida ishlab chiqiladi.

Xususan, piyodalar va avtotransport harakati xavfsizligini ta'minlash, muhandislik tarmoqlarini takomillashtirish, ijtimoiiy obyektlar — maktab, bog'cha, tibbiyot muassasalari va dam olish hududlarini oqilona joylashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu orqali hudud zamonaviy qiyofaga kiradi. Shuningdek, infratuzilma tarmoqlarni har jihatdan mukammal bo'ladi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, mahallalarning ijtimoiiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday o'zgarishlar esa yurtdoshlarimiz kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGI O'ZBEKISTON

yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Fan va amaliyot

QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION MAKTAB ISH BOSHLADI

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari bunday ilg'or tajribani keng joriy etish zarurligini ta'kidlab, Mirzacho'lda innovatsion qishloq xo'jaligi maktabini tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatladi. "Mirzacho'l agroklasteri"da paxtachilik bo'yicha erishilgan yuksak natijalar endi butun mamlakat fermerlari uchun o'quv amaliyotiga aylanaadi. Ushbu maktabda respublika bo'yicha ming nafar fermerlarni cho'l sharoitida paxta va boshqa ekinlarni yetishtirishga o'qitish, belgilangan dasturni muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikat olganlarga fermerlar reytingida qo'shimcha 10 ball berish tizimi joriy etilishi nazarda tutildi.

Fermerlar o'qiy boshladi

Bahor eshik qoqib turibdi. Ko'z ochib yumguncha yerga chigit qadaladigan palla ham keladi. Shunday ekan, innovatsion maktab dastlabki mavsumda qanday o'r'in tutishi, uning ayni paytdagi faoliyati bilan qiziqdik. Qishloq xo'jaligi vazirligining ilmiy-fan, innovatsiya va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i To'xtamurod Otaqulov bu bo'yicha ma'lumot berdi.

Uning aytishicha, innovatsion maktab binosi eng so'nggi loyihalar asosida ta'mirlandi hamda fevraldan ish boshladi. Zarur mebel va laboratoriya jihozlari, ko'rgazmali vositalar hamda qishloq xo'jaligi dronlari olib kelindi. Zamonaviy elektron texnologiyalar bilan jihozlangan o'quv zallari, paxtachilik va g'allachilik, bog'dorchilik va chorvachilik, melioratsiya va irrigatsiya kabi yo'nalishlardagi o'quv xonalarida tinglovchilar uchun yetarli qulaylik yaratilgan.

O'quv kurslari Toshkent davlat agrar universiteti, "Buxoro agroklasteri" mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari, mutaxassislari tayyorlagan dasturlar asosida amaliy va nazariy tashkil etilyapti. Birinchi bosqichda Mirzacho'l, Do'stlik va Anasoy tumanlarining 100 dan ortiq fermerlari uchun 40 soatlik o'quv kurslariga start berildi. O'quv jarayoni yuqori malakali professor-o'qituvchilar hamda amaliyotchi mutaxassislar tomonidan paxtachilik va g'allachilikda ilg'or agroteknologiyalar va innovatsiyalar asosida o'tiladi. Toshkent davlat agrar universiteti va Mirzacho'l innovatsion qishloq xo'jaligi maktabi o'rtasida ilmiy, o'quv hamda amaliy texnik hamkorlik qilish bo'yicha kelishuv imzolandi. Bu fermer xo'jaliklari va agroklasterlar o'rtasida bilim hamda malaka almashinuvi, zamonaviy agroteknologiyalarni joriy etish bilan birga ilmiy-amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maktabda fermerlarga ilg'or, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash tartibi tushuntirilmoqda. Tinglovchilarning qay biri bilan shubhatlashgan, soha tarixida kuzatilmagan ezgu ishga o'z vaqtida kirishilganini aytadi. Zero, kurs ishtirokchilari nazariya bilan amaliyot uyg'unligi, ayniqsa, bugungi dunyo tajribalariga asoslangan ilmlardan boxabarlik davr talabi ekanini chuqur anglab yetyapti. Aslida, kursning asosiy vazifasi ham fermer xo'jaliklari va mutaxassislarini paxta va g'allacha yetishtirishda innovatsion agroteknologiyalar bilan tanishtirish hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, resurs tejamoir, ekologik xavfsiz va yuqori hosildorlikni ta'minlovchi usullarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali fermer va mutaxassislarning kasbiy salohiyatini yuksaltirishdir. Rejaga ko'ra, o'quv kurslari fevral-aprel oylarida tashkil etiladi.

Suvni tejash, hosildorlikni oshirish — bugunning talabi

Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi direktori o'rinbosari Oybek Omonovning aytishicha, markazda 10 dan ziyod

ilmiy-tadqiqot instituti bor. Ularda 600 ga yaqin olim faoliyat yuritaypti. Suv ta'minoti og'ir, hosildorligi past fermer xo'jaliklariga amaliy yordam berishda bularning ilmiy salohiyatidan foydalaniladi. Innovatsion maktabda har hafta qishloq xo'jaligi, ayniqsa, g'allachilikdan yuqori, g'o'za va sholidan yiliga ikki marta hosil olish, qolaversa, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish kabi yo'nalishlarda olimlar fermer xo'jaliklari bilan muloqot qiladi.

Bugun qishloq xo'jaligi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri iqlim sharoiti og'ir va suv resurslari cheklangan hududlarda paxta, g'allacha va boshqa ekinlardan barqaror va yuqori hosil olishga erishishdir. Ayniqsa, cho'l sharoitida paxta va g'allacha yetishtirishda tomchilatib, yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usullar orqali suv tejaladi, o'simlik ildiziga zarur nam va ozuqa to'g'ridan to'g'ri yetkaziladi. Natijada suv sarfi 40-50 foizga kamayib, hosildorlik sezilarli darajada oshadi.

Innovatsion maktabda laboratoriya mudiri sifatida ishlayotgan Alisher Akromov bu yerda tashkil etilgan ilmiy seminarlarda paxta xomashyosini qabul qilish jarayoni, saqlash, ishlab chiqarishda sifatl mahsulot olish bo'yicha ishtirokchilarga taklif va tavsiyalar berdi. Bundan tashqari, fermer xo'jaliklarida sifatl urug'lik chigit tayyorlash bo'yicha ham ma'ruza qiladi.

— Ilm bilan ishlab chiqarish birlashsa, yuqori hosildorlikka erishiladi. Fermer xo'jaliklarining iqtisodiy manfaatdorligi oshadi, — deydi u. — Ayniqsa, cho'l va cho'lga yaqin hududlarda paxta va g'allacha yetishtirishda ilmiy yondashuv hamda zamonaviy innovatsion agroteknologiyalarni amaliyotga joriy etish talab qilinmoqda. Shu ma'noda, ilm-fan va amaliyot uyg'unligi paxtachilik va g'allachilik tarqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanib bormogda.

Cho'l hududlarda o'ziga xos yuqori harorat, kam yog'in, sho'rlanish, suv tanqisligi paxta va g'allacha yetishtirish jarayonini qiyinlashtiradi. Ilgari bunday yerlar kam unumli, qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz deb hisoblangan. Ammo so'nggi yillardagi izlanishlar to'g'ri bajarilgan agroteknika, mos navlar va resurs tejovchi texnologiyalar orqali cho'l yerlarni ishlab chiqarishga samarali jalb etish mumkinligini ko'rsatmoqda.

O'quv-seminarlar davomida ishtirokchilarga so'nggi yillarda cho'l iqlimiga moslab yangi yaratilgan, qurg'oqchilik va sho'rlanishga chidamli paxta va g'allacha navlari bo'yicha ma'lumotlar berilyapti. Bunday navlar suvni kam talab qiladi, yuqori haroratga bardoshli, hosildorlik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi.

Ilmiy ishlarnalarning natijadorligini oshirishda ularni fermerlar tajribasi bilan uyg'unlashtirish yuqori samara beradi. Shu maqsadda "ilm — tajriba — ishlab chiqarish" janri yo'lga qo'yilyapti. Dala seminarlari, tajriba maydonlari, maslahat xizmatlari orqali olimlar o'z tavsiyalarini amaliyotga ommalashtirmogda.

Bugun ko'plab fermer xo'jaliklari ilmiy asoslangan agroteknik tadbirlar orqali cho'l hududlarda ham yuqori va sifatl paxta hamda g'allacha hosili olishga erishmogda. Bu esa ilm-fanga tayanish samara berayotganining yaqqol isbotidir. Endi raqamli qishloq xo'jaligi texnologiyalari yordamida yer maydoni va ekinlar monitoringi hamda dronlar orqali nazorat qilish, iqlim ma'lumotlarini yig'ish kabi innovatsion yechimlar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu fermerlarga ekinlarni joylashtirish va hosilni prognoz qilishda aniq va tezkor ma'lumotlarga tayanish imkonini beradi.

Cho'l sharoitida paxta yetishtirish faqat iqtisodiy samara emas, balki ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan ham muhim. Suvni tejash, yerlar degradatsiyasining oldini olish, iqlim o'zgarishiga moslashish bugunning asosiy vazifasidir. Ilm-fan va amaliyot uyg'unligi aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bu yo'ldagi hamkorlik va uyg'unlik mamlakat qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Salomatlik – el boyligi

TADBIRKOR AMUDARYO TUMANIDA IBBIYOT MUASSASASI QURIB BERDI

Boshlanishi 1-betda

“Salomatlik marafoni” Ellikqal’ada

Yurtimizda har yili “Salomatlik marafoni” o‘tkazib kelinmoqda. Ushbu muhim tadbirni o‘tkazishdan asosiy maqsad aholi salomatligini mustahkamlash, odamlar o‘rtasida kasalliklarni erta aniqlash va oldini

olish, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilishdan iborat.

Ushbu marafon Ellikqal’a tumanida ham bo‘lib o‘tdi. Tumandagi 7 ta oilaviy poliklinika va 6 ta oilaviy shifokorlik punktida aholi profilaktik tibbiy ko‘rik va ommaviy skrining tekshiruvlaridan o‘tkazildi. Surunkali kasalliklari bo‘lgan bemorlar mamlakatimizning yetakchi mutaxassislari ko‘rigi va yuqori texnologik operatsiyalar uchun tanlab olindi.

“

Aholi terapevt, pediatri, kardiolog hamda boshqa mutaxassislar ko‘rigidan o‘tkazilib, zarur laborator tekshiruvlar amalga oshirildi. Shuningdek, surunkali kasalliklarga chalingan fuqarolarga maslahatlar berilib, davolanish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etildi. Ayniqsa, yoshi ulug‘lar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda doimiy tibbiy nazoratga muhtojlar holatiga alohida e’tibor qaratildi.

— Ko‘rsatmaga asosan 11 turdagi laborator va 7 turdagi instrumental tekshiruvlar o‘tkazildi. Shuningdek, bemorlarni maxsus tor soha mutaxassislarga yuborish ishlari tizimli bajarildi, — deydi Qoraqalpog‘iston sog‘liqni saqlash vazirligi axborot xizmati rahbari Gulzar Jumagulova.

Ellikqal’a tumani tibbiyot birlashmasining malakali shifokorlardan iborat guruhi tumaning eng olis hududlaridan biri — Chuqurqoq mahallasida ham bo‘lib, marafon

doirasida odamlarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazdi.

Aholi terapevt, pediatri, kardiolog hamda boshqa mutaxassislar ko‘rigidan o‘tkazilib, zarur laborator tekshiruvlar amalga oshirildi. Shuningdek, surunkali kasalliklarga chalingan fuqarolarga maslahatlar berilib, davolanish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etildi. Ayniqsa, yoshi ulug‘lar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda doimiy tibbiy nazoratga muhtojlar holatiga alohida e’tibor qaratildi. Ko‘rik jarayonida aniqlangan holatlar yuzasidan fuqarolar tegishli tibbiyot muassasalariga yo‘naltirildi. Bunday sayyor tibbiy xizmatlar olis hududlarda yashovchilar uchun qulaylik yaratib, ularning salomatligini mustahkamlashga xizmat qilyapti.

Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida har bir tumanga viloyatlar biriktirilgan. Nukus tumaniga Samarqand viloyati biriktirilgan bo‘lib, tibbiyot sohasiga 1 milliard 100 million so‘m ajratildi. Ushbu mablag‘ hisobidan oilaviy poliklinikalar uchun 3 ta sanitar avtomashina olingan. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar orasidan murakkab xitisoslashtirilgan operatsiyaga ehtiyojmand 19 bemorda Samarqand viloyati shifokorlari jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazdi.

Yurtimizda sog‘liqni saqlash sohasida o‘tkazilayotgan islohotlar natijasi hududlardagi zamonaviy tibbiy xizmat sifatida shu tariqa aks etmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Minajatdin QUTLIMURATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

REIMBURSATSIYA DASTURI yoxud bepul dorilar kimlarga ajratiladi?

Inson qadri uchun

Boshlanishi 1-betda

Kafolatlangan tibbiy xizmat hajmi davlat mablag‘lari hisobidan kafolatlangan tekin tibbiy xizmatlar ro‘yxati bo‘lib, unga shoshilinch tibbiy yordam, birinchi bosqich shifokorlik tibbiy xizmatlari, ba’zi tahlil va diagnostika ishlari, stasionar davolanish kabilar kiradi.

O‘tgan yillar davomida davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri, Sirdaryo, Navoiy, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarda joriy etildi. Xususan, 2025-yilda 768 ta tibbiyot muassasasi Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan shartnoma asosida faoliyat yuritdi. Mazkur tibbiyot muassasalari “aholi jon boshiga” va “har bir davolangan holat” tamoyili asosida moliyalashtirilib, buning uchun 20,1 trillion so‘m yo‘naltirildi. Bu mablag‘ shifokorlar mehnatini qadrlash, tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar manfaatini ustuvorligini ta’minladi.

Intimiyotli toifaga kiruvchi shaxslarga elektron yo‘llanma asosida ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat xarajatlarini qoplash maqsadida Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi 2025-yil uchun 155 ta tibbiyot tashkiloti bilan 1 trillion 232,1 milliard so‘mlik shartnoma imzoladi.

2025-yilda bu muassasalarda elektron yo‘llanma asosida davolangan, intimiyotli toifaga kiruvchi 101 ming 623 kishiga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun 1 trillion 231,79 milliard so‘m to‘lov amalga oshirildi.

Intimiyotli toifadagi fuqarolarga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam shunchaki ijtimoiy xizmat emas, balki davlatning inson

hayoti, xalq salomatligi va adolati jamiyat qurishga qaratilgan oqilona siyosatining amaldagi ifodasidir.

— 18 yil suyak yemirilishi kasalligi bilan yashadim, — deydi namanganlik Sojida Nasriddinova. — Davolanish uchun mablag‘ topolmay, yillar davomida aziyat chekdim. Shifoxona eshiklarida sarson bo‘ldim. Bormagan shifokoru tabibim qolmadi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi orqali Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiy yordam hajmi va ko‘lamini filialda operatsiya qilindim. Amaliyot muvaffaqiyatli o‘tdi. Kasallik ortda qoldi. Bugun bemalol yura olayman.

Bunday taqdirlar, misollarni ko‘p keltirish mumkin.

Jamg‘arma faoliyatidagi ochiqlik, hisobdorlik va raqamlashtirish xalq ishsonchi va davlat siyosati samaradorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ko‘rsatilgan tibbiy yordam hajmi va ko‘lamini ortishi bu — faqat raqam emas, balki minglab inson hayoti, ularning sog‘lom va farovon kelajagidir. Bugun davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlarga ishonch ortib borayotgani yangi O‘zbekistonda inson qadri ustuvor ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bu boradagi islohotlar davomiy, tizimli va xalq manfaatiga xizmat qiluvchi jarayon bo‘lib, ular kelgusida ham hududlarda tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish, manzilli yordamni kengaytirish va har bir fuqaroga teng imkoniyat yaratishga yo‘naltiriladi.

— O‘tgan yilning birinchi kunidan tobim bo‘lmadi, — deydi andjonlik Rustamjon

Mamasoliyev. — Andijondagi shifoxonada davolandim. Lekin foydasini sezmadim. Sentyabr oyiga kelib, menga surunkali buyrak yetishmovchiligi tashxisi qo‘yildi va dializ olishim tavsiya qilindi. O‘tgan vaqt davomida kasallik meni holdan toydirgan edi. Dializ olish juda og‘ir kechdi.

Shifokorlar operatsiya zarurligini aytgach, Toshkentga yo‘l oldik. O‘g‘lim mendan beruxsat donor bo‘libdi. Bu xabarni operatsiyadan chiqqandan so‘ng eshitdim.

Milliy tibbiyot markazida o‘tkazilgan operatsiya va barcha davolash xarajatlari davlat tibbiy sug‘urtasi tomonidan qoplandi. Agar bu tizim bo‘lmaganida, men oyoqqa turmasdim.

Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi faqat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash emas, balki davlatning inson hayotiga, sog‘lig‘iga va ijtimoiy adolatga bo‘lgan mas’uliyatidir. Yil davomida tizim orqali amalga oshirilgan ishlar shundan dalolat beradiki, Prezidentimiz tashabbusi va siyosiy irodasi natijasida minglab insonlar hayotida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi.

Reimburseatsiya dasturi nima?

Davlat tibbiy sug‘urtasi joriy etilayotgan hududlarda aholiga kafolatlangan hajm doirasida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, jumladan, surunkali bemorlarni bepul dori-darmon bilan ta’minlash choralarini ham ko‘rilmogda.

“Xarajatlarini qoplash” ma’nosini anglatuvchi “reimburseatsiya” so‘zi iste’molga kirib kelganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lmadi.

Reimburseatsiya dasturi doirasida surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarga oilaviy shifokor yozgan elektron retsept asosida 28 turdagi dori-darmon ambulator davolanish uchun tekin taqdim etilmoqda. Dori xarajatlari Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan qoplab berilyapti. Xususan, ayni paytda dasturga arterial gipertoniya, yurak ishemik, qandli diabetning 2-turi, qandisiz diabet, bronxial astma, o‘pkaning surunkali obstruktiv va me’da-ichak tizimi xastaliklari kabi 12 ta kasallik guruhi kiritilgan.

“Bepul dorilar kimlarga beriladi?” degan haqli savol tug‘ilishi mumkin.

— Tahlillar O‘zbekistonda yurak-qon tomir xastaliklari umumiy o‘lim sonining 60 foizini tashkil etishini ko‘rsatmoqda, — dedi Sog‘liqni saqlash vazirligining Tibbiy sug‘urtani tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i Shuhrat Alimardonov. — Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyasiga ko‘ra, yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish bo‘yicha milliy klinik protokol ishlab chiqilgan. Agar bemor hayoti davomida o‘z vaqtda dori ichib borsa, kasallik asorat qoldirmaydi. Qolaversa, davlat shifoxonalarga bo‘ladigan bosimning oldi olinadi.

— Ancha yillardan buyon oshqozon og‘rig‘i va qon bosimi oshishidan aziyat chekaman, — deydi Nargiza Maqsudova. — Chilonzor tumanidagi 33-poliklinikada ro‘yxatda turaman. Shifokorlar elektron retsept orqali dorixonaga yo‘naltiradi. Bepul dori olaman. Har oy retsept yangilanadi. Tibbiyot xodimlari nazoratida tayinlangan dorilarni o‘z vaqtda

qabul qilganim tufayli sog‘lig‘im ancha yaxshi. Bundan juda xursandman. Yaxshiyam shu tizim yo‘lga qo‘yilgan, aks holda, zarur dorilarni sotib olishga imkoniyatim yetmasdi, bu sog‘lig‘im yomonlashishiga sabab bo‘lishi mumkin edi.

— Toshkent shahri va 15 ta tajriba-sinov hududida amaliyotga kiritilgan “Elektron retsept” tizimi bilan Reimburseatsiya dasturi asosidagi elektron retseptni adashdirmaslik kerak, — deydi Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ijro etuvchi direktori o‘rinbosari Ulug‘bek Kandimov. — Reimburseatsiya dasturida elektron retsept asosida dispenser nazoratida turuvchi bemorlarga dori bepul beriladi. “Elektron retsept” tizimida esa bemor dorini o‘zi sotib oladi.

Mutaxassislar fikricha, Reimburseatsiya dasturi aholini sifatli va kafolatlangan dori-darmon bilan ta’minlash, surunkali kasalliklar asoratlarini kamaytirish hamda tibbiy xizmatlar shaffoqligini oshirishga xizmat qiladi.

— O‘tgan yilda 1 million 300 mingdan ortiq bemor tekin dori-darmon bilan ta’minlanib, ularga 2,5 milliondan ortiq elektron retsept rasmiylashtirildi, dorixonalarga 90 milliard so‘mlikka yaqin dorining qiymatlari qoplab berildi, — deydi U.Kandimov. — Reimburseatsiyaga rejalashtirilgan mablag‘lar jamg‘arma tomonidan boshqarib, belgilangan limit shakllantirilib boriladi. Elektron retseptlar rasmiylashtirilishi monitoringi va maqsadli sarflanishi doimiy nazoratda. Reimburseatsiya dasturiga kiruvchi kasalliklarni yanada kengroq qamrab olish, dori turlarini ham ko‘paytirishni maqsad qilib olganmiz.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘lamini kengaytirish, ya’ni aholining barcha qatlamini qamrab olish, ularni ambulator sharoitda davolashga erishish, kasalliklarning oldini olish, aholining umr ko‘rish davomiyligini uzaytirish eng katta maqsad.

Dorixonalarda nima gap?

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan shartnoma tuzgan dorixonalar orqali surunkali kasallarga dori yetkazib berilyapti.

— “Dori-darmon” aksiyadorlik kompaniyasi va uning tizimidagi jamiyatlarga qarashli 481 ta dorixona va dorixona shoxobchasi Reimburseatsiya dasturiga ulangan va faoliyat ko‘rsatib kelmogda, — deydi “Dori-darmon” aksiyadorlik kompaniyasining chakana savdoni rivojlantirish direktori Abdusohid Inog‘omov. — 2025-yil davomida Reimburseatsiya dasturiga ulangan dorixona va dorixona shoxobchalarida, ma’lumotlarga ko‘ra, 28 milliard 300 million so‘mlik dori elektron retsept orqali bemorlarga bepul berilgan.

“Elektron retsept” tizimini bosqichma-bosqich joriy etish tartibiga ko‘ra, Toshkent shahri hamda viloyatlardagi 15 ta tuman va shahardagi barcha tibbiyot tashkilotlarida tajriba-sinov tariqasida dori-darmonni xalqaro patentlanmagan nomi bo‘yicha bosqichma-bosqich elektron retsept asosida tayinlash belgilandi. Birinchi bosqichda antibiotiklar va tizimli ta’sir etuvchi sintetik antibakterial dori hamda tizimli ta’sir etuvchi gormonal dori elektron retsept orqali berilishi belgilandi.

Elektron retsept modulining mohiyati shundaki, tizim dorilarning dozasi va shaklini hisobga olgan holda xalqaro patentlanmagan nomi bilan elektron retsept yozishni ta’minlaydi. Retsept asosida dorini markirovka qilingan holda sotish imkonini beradi. Barcha jarayonlar avtomatlashtiriladi, inson omili kamayadi. Bemorlar mobil ilova orqali o‘z retseptlarini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Risolat MADIYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2026-yil 3-mart, 42-som

6

MEZON

8-mart —
Xalqaro xotin-qizlar kuni

YANGI O‘ZBEKISTON

Asrlar dovonidan oshgan umurlar

Qish fasli o‘zining qut-barakasini ona zamin uzra sochib, tabiat asta-sekin yangilanish ayyomi — fasli navbahorga yo‘l ochayotgan shu fayzli kunlarda insonlar qalbida ham iliqlik, ezgulik va saxovat tuyg‘ulari uyg‘onadi. Tabiatdagi bu o‘zgarish kishilar ruhiyatiga ham ko‘chib, yaxshilik qilish, hol so‘rash, duo olish kabi qadriyatlarni yana bir bor esga soladi.

Ana shunday ko‘tarinki kayfiyat og‘ushida ijodiy jamoamiz bilan yoshi ulug‘larni yo‘qlash, duolarini olish va o‘g‘itlaridan bahramand bo‘lish niyatida yo‘lga otlandik. Zero, bu nafaqat ijodiy vazifa, balki qalb ehtiyoji manbaidir.

Manzilimiz Toshkent viloyatining Zangiota tumani bo‘ldi. Darhaqiqat, hayot sinovidan o‘tgan, qadoq qo‘li mehnatda toblangan nuroniylar suhbatida bo‘lish o‘zimiz uchun ham katta ma‘naviy saboq vazifasini o‘taydi. Chunki shukrona va sabr bilan umr kechirish sirlari kitob sahifalarida emas, aynan shunday tabarruk insonlarning qalbida mujassam. Ularning so‘zida hayot hikmati, duosida esa baraka yashirin.

Zangiota tumanining Shodlik mahallasi Inoq ko‘chasida istiqomat qilayotgan Mavluda Kamolova ana shunday onaxonlardan. Aya joriy yil 1-yanvarda 101 yoshni qarshi oldi.

— Ramazonning shunday ulug‘ kunlarida meni yo‘qlab kelibsizlar, boshim ko‘kka yetdi. Yetkazganiga shukr, tinch va farovon zamonlarga ham yetib keldik, — deydi Mavluda ona. — Aslida, doim shunday yorug‘ kunlarni orzu qilib, yaxshi niyat bilan yashaganman. Bugun yurtimiz tinch, hayotimiz farovon; bolalar, nabirayu evaralar ardog‘ida, mehr-muhabbat quchog‘ida yayrab o‘tiribmiz. Ko‘ngilda yaxshi niyat va shukrona bo‘lsa, har qanday sinovni yengib o‘tish mumkin. Odamzodni turmush qiyinchiligi emas, noshukrlik yengadi. Shuning uchun nolimay, Xudo bergan umrni, peshonaga yozilgan taqdimni, vujudagi tansihatlikni va eng asosiysi, tiriklikni ne‘mat



bilib, boriga qanoat qilib yashay olish kerak.

Onaxonning so‘zlarini tinglar ekanmiz, qulog‘imiz ostida o‘tmish qiyinchiliklaridan noli sh yoki quruq pand-nasihati emas, balki har bir kunga shukrona tuyg‘usining ichki ovozi yangraganday bo‘ldi.

To‘g‘risi, 7 farzand, 23 nevara, 48 evara va 16 chevaraning boshi bo‘lgan onaxonning xonadoniga borish oldidan xayolimizda turli tasavvurlar uyg‘ongan edi. Negadir biz borayotgan xonadon farishtasini juda keksaygan, gapirishga holi yetmaydigan buvi sifatida ko‘z oldimizga keltirgandik. U



kishini charchatib qo‘ymaymiz, ko‘p gapga solmaymiz, shunchaki ko‘rib, hol so‘raymiz va duolarini olamiz degan o‘yda edik.

Garchi hamrohlarimiz onaxonni juda tetik, xotirasi mustahkam, deya ta‘riflagan bo‘lsa-da, baribir qalbimizda bir oz imyanish aralash ming bitta o‘y bilan darvoza hatlab kirgan edik.

Hovliga qadam qo‘yishimiz bilan esa tasavvurimiz butunlay o‘zgardi. Bizni 70 dan oshgan va 80 ni qoralagan bir guruh nuroniy samimiy tabassum bilan qarshi oldi. Ilk daqiqadayoq ularni mahalla faol-lari va faxriylari deb o‘yladik. Keyin bilsak, bu tabassumli, ko‘zida hayot ziyosi porlab turgan otaxon va onaxonlar Mavluda ayaning farzandlari ekan.

Onaxonning to‘ng‘ich qizi Malohat opa 78, Muzayyanna opa 76, Muqaddas opa 71, Omonulla aka 70, Dilorom opa 66, Sadoqat opa 64, kenja farzandi G‘aybull a aka esa 63 yoshda. Ulaming o‘zi ham bugun bobo-buvi maqomidagi avlod vakillari. Biroq ular onasining yonida o‘zini go‘yo yosh boladek beg‘ubor va samimiy tutadi. Ayaning har bir so‘zi ular uchun hanuz qonunday qadrlri ekan sezilib turadi.

Farzandlar bolalikda bosib o‘tgan hayot yo‘lini eslab, onaxon boshdan kechirgan qiyinchiliklar, turmushning og‘ir sinovlari, yaxshi va yomon kunlari, to‘y-tantanalari hamda erishgan muvaffaqiyatlari haqida goh hayajon, goh ko‘zda yosh bilan hikoya qilib berdi. Ular o‘z so‘zida onasi bergan tarbiya, o‘rgatgan saboqlar, turli vaziyatlarda olgan duolari va nasihatlari doimo ularga yordam berganini faxr va quvonch bilan gapiradi.

“Hoy, Zaynab, nega adashtirasan?”

Suhbat asnosida ayaning ikkinchi qizi Zaynab opadan “Onangizning bugun qancha nevara, evara va chevaralari bor?” deb so‘radik.

— Onajonimning 40 ga yaqin nevarasi bor, — dedi u.

Shu payt onaxon qizining gapini bo‘ldi:

— Hoy Zaynab, nega adashtirasan? Nevaram 23 nafar-ku. Nevaralarimning faqat ismini emas, balki qay biri qayerda ishlayotgani va yashayotganini ham aniq aytib bera olaman, — deya ularni birma-bir sanay boshladi. Aya xotirasining tiniqligi va hisob-kitobi aniqligi bizni, ochig‘i, hayratga soldi. Aslida, bu shunchaki kuchli xotira emas, balki o‘z avlodiga yuksak mehr va e‘tibor namunasi edi.

Taqdirning yangi sahifasi

Asli Toshkent shahrining Hazrati Imom mahallasida voyaga yetgan Mavluda aya



ziyoli va tarbiyali oilada kamol topgan. U paytlarda qiz bolaning ta‘lim olishi har doim ham odatiy hol sanalmagan. Ammo uning ota-onasi zamonadan ilgarilab fikr yuritardi. Shu bois, ular qizini tibbiyot bilim yurtiga o‘qishga qo‘yg’an edi.

Urushdan keyingi davr muhtojlik, yetishmovchilik va tanqislik yillari edi. Oila turmush taqozosi bilan Toshkent viloyatiga ko‘chib o‘tadi. Ikki yillik tahsilni muvaffaqiyatli tugatgan, orzularga to‘la,

rozi”, deyishgan. Buni yaxshi anglagan yosh Mavluda e‘tiroz bildirmay, rozilik beradi.

— Urushdan keyingi davrning qiyinchiliklari bizni qanchalik qiynamasin, nolimay yashadik. Yarimta nonni butun bilib, birin-ketin tug‘ilgan farzandlarimizni mehr bilan voyaga yetkazishga harakat qildik, — deya o‘tmishni eslaydi onaxon. — Turmush o‘rtog‘im tunu kun daladan beri kelmasdi. O‘sha vaqtda kolxoz raisi bo‘lib



hayot ostonasida turgan 19 yoshli qiz uchun yangi joyda taqdir yangi sahifa ochadi.

Frontdan yaralanib qaytgan, bir oyog‘i protezda, bir qo‘lining barmoqlarini dushman o‘qi yulib ketgan bo‘lsa-da, irodasi sinmagan Ubaydulla ismli jasur yigitning oilasidan sovcilar kela boshlaydi. Agronom bo‘lib, yer bilan tillashib, rizq urug‘ini ekip, hayotini qaytadan barpo etishni istagan Ubaydulla Kamolov o‘zidan ancha yoshi kichik Mavludani bir ko‘rishdayoq yoqtirib qolgan edi.

O‘shanda Mavludaga otasi “Qizim, bu yigitning otasi ham halol, mehnatkash inson ekan. Ming afsuski, ikki o‘g‘li urushda bedarak ketibdi. Ubaydulla esa oilaning uchinchi farzandi. Agar bizni rozi bo‘lsin, desang, shu yigitga turmushga chiq. Kam bo‘lmaysan. Chunki yoshgina hayotini tinchlik yo‘lida qurbon qilishga tayyor insondan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Bunday insonlarning qalbi mehrga doimo to‘la bo‘ladi”, deya to‘g‘ri maslahat beradi. “Ota rozi — Xudo

ishlasa-da, ba‘zan uyimizda yeyish uchun bir tishlam non ham topilmasdi. Qora qozonni qaynatish, ro‘zg‘orni oz bo‘lsa-da, to‘ldirish ilinjida kichik farzandlarimni kattalariga tashlab, o‘zim dalaga ishga chiqib ketdim. Bu orada urush asoratlari tufayli xo‘jayinim 56 yoshida olamdan o‘tdi. O‘shanda eng kichigimiz — o‘g‘lim G‘aybulla 10 yoshda edi. Shundan so‘ng ro‘zg‘orning bor og‘irligi va tashvishi o‘zim hamda yoshgina farzandlarimning mushdekkin yelkasiga tushdi. Hayot turli sinovlari bilan sinasa-da, Yaratganning hifzu himoyasi sabab bu mashaqqatlar qaddimni buki, irodamizni sindira olmadi. Tunlari xira chiroq qarshisida o‘tirib, mahalla ahlining kiyimlarini tikib berdim, bemorlarga hamshiralik qildim. Kunduzlari esa farzandlarim bilan dalada ishlab, kun og‘anida bog‘imizda bog‘bonlik qildim. Eh, u davrning mashaqqatli kunlarini eslashning o‘zi ham og‘ir. Ayniqsa, yonida suyanchig‘i yo‘q, yetti bola bilan chirqillab qolgan mendek bir ayolning holini hech kim so‘ramasdi. Ota uyimga borib, ko‘nglimni yozib kelay, desam, u yerda ham xotirjamlik

yo‘q edi. Chunki bobomni “bosmachi”, “quloq” deb olis yurtlarga surgun qilishgandi. Hovlimizda nima bo‘lsa, barini tortib olib ketishgan, hatto buvimning bo‘ynidagi zebigardonlarigacha yulqib olishgandi.

Shukr, mana, xotirjam va farovon zamonlarga ham yetib keldik. Ilohim, yurtimiz doim tinch bo‘lsin. Yoshlar shu tinch kunlarning qadriga yetsin deb duo qilaman.

Kechirimlilik va qanoat

Eng qizig‘i, Mavluda ayaning qismatga munosabati e‘tiborga loyiq. Nega deysizmi? Bir necha yil muqaddam noto‘g‘ri qilingan ukol sababli onaxonning soppa-sog‘ yurib turgan bir oyog‘i ishlamay qolgan. Bunday holat har qanday insonni iztirobga solishi, norozilik uyg‘otishi tabiiy, albatta. Ammo onaxon buni ham peshonasiga yozilgan qismat, Yaratganning bir sinovi sifatida qabul qilgan. Farzandlari va nevaralari kuyinib “Bu nohaqlik-ku, sog‘lom holingizda yura olmay qolasizmi?” deya ranjiganida onaxon “Tana meniki, og‘riq va ozor ham meniki. Qo‘yinglar, bilib-bilmay qilgan xatosi uchun kimdir jazolanmasin. Bu Xudoga xush kelmaydi”, debdi.

Ha, dardini ichiga yutish, aybdorni kechira olish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydigan va bugun juda kam uchraydigan ulug‘ fazilatlardan.

kunlarga ishonib yashardik. Ming shukr, shunday yorug‘ kunlarni shu obod diyorda onajonim bilan birga ko‘rib turibmiz.

Mavluda ona farzandlariga nafaqat halol rizq topish, balki shukrona, qanoat va matonat darslarini ham o‘rgatgan va uqtirgan. Shu bois, bugun ularning har biri o‘z yo‘lini topgan barkamol insonlar bo‘lib yetishdi. Biz bu xonadonda qiyinchiliklar ichida o‘sgan avloddan shikoyat eshitishni emas, balki mehnat orqali keladigan shukronalikni o‘rgangan insonlarning hayotiy ibratlarini tingladik.

Navbatdagi manzil

Navbatdagi manzilizmiz mazkur tumanning Forobiy mahallasi bo‘ldi. Mahalla raisi va hokim yordamchisi hamrohligida Qirguzar ko‘chasida istiqomat qiluvchi 103 yoshli onaxon Asiya Bashirova xonadoniga yo‘l oldik.



Mahalla raisi yo‘l-yo‘lakay keksa avlod vakillarining borligi nafaqat o‘sha xonadonning, balki butun mahallaning fayzu barakasi ekanini, “Qarisi bor uyning parisi bor” degan xalq maqoli bejiz aytilmagani ta’kidlab bordi.

Xonadon darvozasi oldida bizni Asiya onaning 76 yoshli o‘g‘li Boris aka va rafiqasi kutib olib, onaxon o‘tirgan xonaga boshlab kirdi. Shinamgina uyning bir burchagidagi divanda o‘tirgan, jussasi kichkinagina bo‘lib qolgan onaxon bilan ko‘rishar ekanmiz, qalbimizda unga hurmat tuyg‘usi uyg‘ondi.

Asiya ona ham Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarning mashaqqatini turmush o‘rtog‘i Ma’sud Bashirov bilan yelkadosh bo‘lib yengib o‘tgan. Harbiy sohada faoliyat yuritgan umr yo‘ldoshi bilan borchilik va yo‘qchilikni, sinov va sabrni birgalikda boshdan kechirgan. Uch farzandni tarbiyali, o‘qimishli va elga nafi tegadigan insonlar qilib voyaga yetkazgan. Onaxonning o‘zi uzoq yillar davomida tibbiyot sohasida mehnat qilgan. Bugun u yigirmadan ziyod nevara, o‘ndan ziyod evara va chevaralarning mehrbon buvisi.

— Turmush o‘rtog‘im 49 yoshida yurak xurujidan vafot etdi, — deya eslaydi onaxon. — Bir-birimizga suyanib, farzandlar va nabiralarning rohatini birga ko‘ramiz, deb niyat qilar edik. Ammo taqdir ekan... Farzandlarim otasining kasbini davom ettirib, harbiylikni tanladi va ona Vatanga sadoqat bilan xizmat qilib kam bo‘lmadi. Shukrki, bugun ularning rohatini, yurtimizdagi tinchlik va to‘kinlikni, biz — qariyalarga ko‘rsatilayotgan hurmat-ehtiromni ko‘rib, el e‘zozida yashayapman.

Onaxonning o‘g‘li Boris aka va kelini Raisa opa ham 5 farzand hamda bir quchoq nevara-evaralar davrasida 56 yildan buyon ahil-uloq umruguzaronlik qilib kelayotgan namunalii oila vakillari ekan.

Bugun Zangiota tumanida 4 nafar, butun Toshkent viloyatida esa 100 yoshdan oshgan 43 onaxon borligi, to‘g‘risi, bizni mamnun etdi. Yangilanish va yasharish fasli bo‘lmish bahor arafasida asrga teng umr sohibalari bilan bo‘lgan suhbatlar qalbimizga nur, ko‘nglimizga taskin bag‘ishladi. Ushbu safarimiz nafaqat ijodiy vazifa, balki odamiylik sabog‘i bo‘ldi.

Zero, xalqimiz doimo nuroniylarni e‘zozlab, ularning holidan xabar olishni va duolaridan bahramand bo‘lishni burch deb bilgan. Inchunin, shukronalik, sabr, qanoat va yaxshi niyat insonni komillikka yetaklovchi eng oliy fazilatlar ekan, nuroniylarimizning borligi xonadonda faqatgina keksalikni emas, balki hayotga muhabbatni, sabrni, qanoatni va shukronalik hissini kuchaytirishini yana bir bor ko‘rdik.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefonlari: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-346.
31346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilizmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘Za yakuni — 20:50